



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



“ATROF –MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI” UCHUN BELGILANGAN YILLIK TADBIRLAR VA ULARNI AMALGA OSHIRISH ZARURATI

Narqulova Muqaddas Ulug’bekovna

Toshkent tibbiyot akademiyasi Urganch filiali

Ijtimoiy fanlar kafedrasi o’qituvchisi

Annotatsiya. *Mazkur maqolada 2025 yil uchun mo’ljallangan davlat dasturi doirasida amalga oshirilishi belgilangan chora –tadbirlar va ularning jamiyat va mamlakat hayoti uchun zarurati hamda samarasida ma’lumotlar berilgan.*

Аннотация. В данной статье представлена информация о мерах, подлежащих реализации в рамках государственной программы на 2025 год, их необходимости и эффективности для жизни общества и страны.

Annotation. This article provides information on measures to be implemented within the framework of the state program for 2025 and their necessity and effectiveness for the life of society and the country.

Ma’lumki har yili yil davomida amalga oshirilishi zarur bo’lgan chora –tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, muhokamaga taqdim etiladi va tasdiqlanadi. 2025 yil uchun ham davlat dasturi ishlab chiqilgan bo’lib, ushbu dastur “Atrof –muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilingan joriy yilga mo’ljallangan “O’zbekiston -2030” strategiyasini amalga oshirish bo’yicha chora –tadbirlarni o’z ichiga oladi. Dasturda “O’zbekiston -2030” strategiyasining quyidagi yo’nalishlari bo’yicha yillik tadbirlar va normativ –huquqiy hujjatlar loyihalari nazarda tutilgan:

- Ekologiya(atrof – muhitni muhofaza qilish va suv resurslarini tejash);
- Ijtimoiy siyosat(ta’lim, sog’liqni saqlash, ijtimoiy himoya, yoshlar);
- Yashil iqtisodiyot(barqaror iqtisodiy o’sish hisobiga aholi farovonligini ta’minlash);
- Davlat boshqaruvi va sud –huquq sohasi (qonun ustuvorligini ta’minlash, boshqaruvni xalq xizmatiga yo’naltirish);
- Tashqi siyosat va xavfsizlik (“xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni davom ettirish).

“O’zbekiston -2030” strategiyasining “Atrof –muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yilda amalga oshirishga oid davlat dasturi e’lon qilingan bo’lib, unga muvofiq, mamlakat rivojlanishining ustuvor yondoshuvlari sifatida quyidagilar belgilangan:

- Mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, ko’chalarda yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish;
- Aholining salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro’yobga chiqarish uchun shart –sharoitlarni yaratish;





TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- Tabiiy resurslarni tejash va ulardan oqilona foydalanish, ekologik barqarorlikni ta'minlash;
- O'simlik va hayvonot dunyosini asrash, ko'paytirish va keyingi avlodga yetkazish;
- "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini keng joriy qilish, iqtisodiyotni iqlim o'zgarishiga moslashtirishga qaratilgan loyihalarni barqaror moliyalashtirish;
- Respublika energobalansini qayta tiklanuvchi energiya ulushni oshirish, shu jumladan, davlat –xususiy sheriklik asosida yirik "yashil energiya" stansiylarini barpo etish, hududlarda kichik va mikro gidroelektrstansiyalar tarmog'ini kengaytirish, aholi xonadonlarida quyosh panellarini o'rnatishni rag'batlantirish;
- Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada zamonaviy energotejamkor texnologiyalarni keng qo'llash orqali iqtisodiyotda "uglerod izi"ni kamaytirish;
- Ekologik barqarorlikka yo'naltirilgan hududlar va tarmoqlararo muvofiqlashtiruvni ta'minlash.

Ustuvor yondoshuvlar resurs tejamkor iqtisodiy rivojlanish modeliga o'tish orqali 2030 yilgacha yalpi ichki mahsulotning yillik o'sishini kamida 6 foiz va uning hajmini 200 milliard dollarga yetkazish, inflyatsiyani 5 foiz, budjet taqchilligini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foiz darajasida saqlash, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish maqsadlariga erishishga asos bo'ladi.

Shu bilan bir qatorda, aholi salomatligini yaxshilash, ekologik turmush tarzini shakllantirish va inson salohiyatini ro'yobga chiqarish borasida aholining kundalik hayotiga ekologik tamoyillarni singdirish orqali mamlakatimizda "Ekofaol fuqaro" hayot tarzini keng targ'ib qilishga qaratilgan "Bir million yashil oila" umummiliy harakati yo'lga qo'yilishi va bunda:

- aholi orasida kunlik yurish va yugurishni targ'ib qilish;
- "yashil transportda", shu jumladan, velosipedda harakatlanishni rag'batlantirish;
- plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytirish, oziq –ovqat isrofgarchiligining oldini olish;
- suv, gaz va elektr energiyasi resurslaridan oqilona foydalanish asosiy tamoyillar sifatida belgilangan.

inson salohiyatini yuksaltirish, ta'lim uchun qulay muhit yaratish ishlarini tashkil etish maqsadida 2025 -2026 o'quv yilidan Markaziy Osiyo atrof –muhit va iqlim o'zgarishini o'rganish universiteti ekologiya, artof –muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi kabi ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha yetakchi oliy ta'lim tashkiloti etib belgilanishi qayd etilgan.

Dasturda 2025 yilda yangi quriladigan bino inshootlar va uy –joylar energiya samaradorligidan kelib chiqib, "Yashil bino" sertifikati joriy etilishi nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, 2025 yilda mahallalarning ekologik qiyofasini yaxshilash, yashillik darajasini oshirish, ekologik jihatdan qulay va farovon yashash muhitini shakllantirish borasida:



TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



- aholi uchun piyoda va velosiped yo'laklarida daraxtlar va o'simliklarni ekish orqali "Soyali sayr ko'chalari" tarmog'i yaratilishi, sohil va daryo bo'yalarida 80 ta infratuzilma obyekti va 110 kilometrdan ortiq sog'lomlashtirish yo'laklari qurilishi;
- yomg'ir va oqova suvlardan samarali foydalanish, mahallalardagi daraxtlarni zamonaviy suv tejovchi texnologiyalar orqali sug'orish tizimini joriy etish natijasida yashillik darajasini oshirilishi;
- "Yashil makon" umummilliy loyihasi va "Mening bog'im" loyihasi doirasida 200 million tup daraxt hamda butalar ekilishi, yashil bog'lar va yashil parklarda quyosh panellari yordamida quvvatlanuvchi yoritkichlardan foydalanilishi;
- Orol dengizi tubida 100 ming hektar "yashil maydon" barpo etilishi va Orolbo'yi mintaqasidagi o'zmonzorlarni 2,1 million gektarga yetkazilishi;
- o'rmon bilan qoplangan maydonlar 4,1 million gektarga yetkazilishi va muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar 14,5 foizgacha kengaytirilishi hamda ularning ekoturizm, ko'chatchilik va dorivorchilik yo'nalishlaridagi foydalanilmayotgan zaxiralari aniqlanib, safarbar qilinishi va aholining daromadlari oshirilishi;
- jamoatchilik, ekofaollar va biznes vakillarining tabiatni muhofaza qilish bo'yicha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash akseleratsiya tizimini joriy etilishi nazarda tutilgan.

Mazkur dastur tegishli yo'nalish va hudud bo'yicha belgilangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish hamda nazarda tutilgan chora -tadbirlarni o'z vaqtida, puxta va samarali amalga oshirish uchun asos bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. uzbekistan2030.uz
2. norma.uz
3. Жаббарова, Ю. (2024). Chet ellik talabalar uchun lingvistik va madaniy komponentlarni o 'z ichiga olgan darsliklar va o 'quv qo 'llanmalarini yaratish. Лингвоспектр, 3(1), 180-184.
4. Xujamuradovna, J. Y. (2024). MATN SHAKLLANISHIDA QARINDOSHLIK ATAMALARINING O 'ZIGA XOS O 'RNI. worldly knowledge conferens, 8(2), 71-73.
5. Xujamuradovna, J. Y. (2024). "QARINDOSHLIK" KONSEPTI SEMANTIK KO 'LAMINING YAQIN VA UZOQ HUDUDLARIGA BIR NAZAR. International journal of scientific researchers (IJSR) INDEXING, 5(2), 1468-1470.
6. Жаббарова, Ю. (2023). Значение интеграционных процессов в образовании. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 57-64.
7. Жаббарова, Ю. (2023). Образование молодежи–судьба народа, прогресс родины. Актуальные проблемы обучения социально-гуманитарных наук в медицинском образовании, 1(1), 48-56.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



8. Жаббарова, Ю. Х. (2023). ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «РОДНЯ» В УСЛОВИЯХ ДИСКУРСА. In НАУЧНЫЕ РЕВОЛЮЦИИ: СУЩНОСТЬ И РОЛЬ В РАЗВИТИИ НАУКИ И ТЕХНИКИ (pp. 81-83).
9. Жаббарова, Ю. (2022). KINSHIP TERMINOLOGY AS AN IMPORTANT ETHNOGRAPHIC AND HISTORICAL SOURCE. МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ЯЗЫКА, ОБРАЗОВАНИЯ, ПЕРЕВОДА, 3(5).
10. КОННОТАЦИЯ, Қ. Т. И. П. Жаббарова Юлдуз Хужамуродовна. SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY.
11. Isamutdinova, D. (2024, October). MILLIY TARIX VA MADANIYATNI AKS ETTIRUVCHISI SIFATIDA O’XSHATISHLAR. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON MODERN DEVELOPMENT OF PEDAGOGY AND LINGUISTICS (Vol. 1, No. 9, pp. 38-41).
12. Marifjanovna, I. D. (2024). INGLIZ TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. SCIENTIFIC APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 3(28), 36-37.
13. Marifjanovna, I. D. (2024). NEMIS TILINI ORGANISHNING SAMARALI USULLARI. PEDAGOG, 7(9), 138-139.
14. Maripfjanovna, I. D. (2024, June). The Importance of Poems and Songs in the Development of German Vocabulary in Young Children. In Interdisciplinary Conference of Young Scholars in Social Sciences (USA) (Vol. 8, pp. 1-3).
15. Durdona, I. (2024). INTERAKTIV TEXNOLOGIYALARING CHET TILI O’QITISHDAGI O’RNI. COBPEMEHHOE OBRAZOVANIE I ISSELEDOVANIA, 1(1), 227-232.
16. Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNALOGIYA ASOSIDA CHET TILI DARSLARINI TASHKIL QILISH. COBPEMEHHOE OBRAZOVANIE I ISSELEDOVANIA, 1(1), 86-89.
17. Isroilova, H., & Isamutdinova, D. (2024). INNOVATSION PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA DARSLARNI TASHKIL QILISH. MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS, 1(2), 218-223.
18. Isamutdinova, D. (2024). LANGUAGE AS A CULTURAL HERITAGE. Экономика и социум, (4-1 (119)), 175-179.

